

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

L.T.Galimullina	
Internal form of phraseological units with the components of precious stones and metals in the english language	1213
A.O.Oxunov	
Ingliz va O'zbek tillarida undov so'zlar (interjection)ning ifodalanishi	1217
M.U.Mamadjanova	
Linguocultural features of the epithets	1221
M.U.Mamadjanova	
Tilshunoslikda epitetning lingvistik tabiatи haqidagi turli qarashlar	1224
M.M.Umaralieva	
The significant role of lingua-psychological, pedagogy-didactic, and methodological factors in the planning and implementation of self-directed programs	1227
Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov	
Bit-dars texnologiyasi asosida ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi tahlili	1232
Sh.Z.Xolmatov	
So'z urg'usining nazariy tavsifi va ahamiyati qiyosiy aspektida	1236
M.M.Umaralieva	
A proficient approach to self-directed learning	1241
Sh.F.Latipov	
Grammatical lacunas as markers of cultural and linguistic identity	1246
Sh.F.Latipov	
Lingvistik lakanani aniqlash haqida ayrim tushunchalar	1249
A.A.Qosimov	
Linguo-pragmatic typology of metaphors: the intersection of language and pragmatics	1252
A.A.Qosimov	
A linguo-cultural approach to metaphor classification: unveiling cultural concepts through figurative language	1258
M.G'Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchilarning ta'lifni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish	1264
Д.Ш.Ибрагимова	
Сущность и структура иноязычной коммуникативной компетенции будущих учителей	1268
Д.Ш.Ибрагимова	
Эффективность использования театрализации в обучении студентов устойчивым базовым английским фразам для чрезвычайных ситуаций	1272
Д.Ш.Ибрагимова, Й.Х.Музаффархонов	
Использование театрализации в процессе формирования речевых навыков у студентов	1278
M.N.Abduolimova	
Theory of cognitive and conceptual metaphors	1282
M.N.Abduolimova	
Analysis of metaphors used in political texts	1286
S.O'.Shermamatova	
Analyses of J.D.Salinger's works	1291
X.Zikiryoxonovna	
Falsafiy-psixologik romanda tush motivi	1295
X.Z.Umarova	
Maktablar – qahramon qalb oynasi	1298
Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov	
Significance of motivation in developing students' creative cooperation skills	1301
S.S.Usmanova	
Jadidchilik va adabiy muhit xususida	1304
V.Abdurakhmanov	
Classification and description of the main alternative issues in social life	1307
R.M.Turdimatova	
The intricacies of irony: types and examples	1311



**BIT-DARS TEKNOLOGIYASI ASOSIDA IJODIY HAMKORLIK KO'NIKMALARINI
RIVOJLANТИRISH SAMARADORLIGI TAHLILI**

**АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА НА
ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ БИТ-УРОКА**

**ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING CREATIVE COOPERATION
SKILLS BASED ON BIT-LESSON TECHNOLOGY**

Igamberdiyeva Shaxnoza Adxamovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Abdukadirov Abduvaxit Gapirovich²

²Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali dotsenti

Annotatsiya

Maqolada ishlab chiqilgan mezonlar bo'yicha "Bit-dars" texnologiyasi asosida talabalarning ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlanтиrish samaradorligi ko'rib chiqilgan. Pedagogik tadqiqotning oraliq bosqichi natijalari qiyosiy tahlili berilgan.

Аннотация

В статье рассматривается эффективность развития творческого сотрудничества студентов на основе технологии «Бит-урока» по разработанным критериям. Дается сравнительный анализ данных промежуточного этапа педагогического исследования.

Abstract

The article considers the effectiveness of developing creative cooperation skill of students based on the "Bit-lesson" technology according to the developed criteria. A comparative analysis of data from the intermediate stage of pedagogical research is given.

Kalit so'zlar: bit-dars, ijodiy hamkorlik, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik, innovatsion g'oyalari.

Ключевые слова: бит-урок, творческое сотрудничество, инициатива, гибкость, инновационные идеи.

Key words: bit-lesson, creative cooperation, initiative, flexibility, innovative ideas.

KIRISH

O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida islohotlar jarayonida har bir soha va yangilanayotgan tuzilmaga kreativ yondashish, ijodiylik asosida modernizatsiya ishlarni olib borish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Chunki yangilanayotgan jamiyat uchun ijodiylik va ijodiy hamkorlik eng ahamiyatli xususiyat bo'lib hizmat qiladi. Shu bois yoshlarda ijodiylik bilan bog'liq sifatlarni shakllantirish orqali jamiyatni iqtisodiy barqarorligini, tinchligi va farovonligini ta'minlash zarurati ortib bormoqda. Shu bilan birga ularda ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlanтиrish ham ustuvor vazifalardan biridir. Buning uchun «yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta'minlash, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun sharoit yaratish, qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarish»[1:77-b] bilan birga bu ishlar uchun hukumat tomonidan munosib shart-sharoit yaratish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish, unga yangicha metodikani qo'llash, hamkorlik pedagogikaning samarali tomonlaridan unumli foydalanish kerak bo'ladi. Shu bois ta'lim tizimida ijodiy fikrlaydigan, ishlaydigan va vaziyatga ijodiy yondashadigan kadrlarni tarbiyalash va bu orqali muammolarni tezkorlik bilan yechadigan va masalalarga yangicha nigoh bilan qaraydigan mutaxassislarni tarbiyalash ishlari yuzaga kelmoqda.

TILSHUNOSLIK

Pedagogikada ijodkorlik deganda, asosan, ixtirochilik, originallik, fantaziya, sezgirlik, muammoni tez hal qila olish qobiliyatları tushuniladi. Bu qobiliyatning ko'p qirrali ekanligi ta'kidlanadi[2;5-b]. Kreativlik – bu har tomonlama fikrlash, his qilish va harakat qilishga bo'lgan potensial layoqat hisoblanadi. «U shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyatı hisoblanadi. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Shuningdek, kreativ fikrlash bir narsaga turli tomonidan yondashishni anglatadi. Har qanday inson tug'ilganda kreativ qobiliyat bilan dunyoga keladi. Uni qaysi yo'lga yo'naltirish va rivojlantirish o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi»[3].

Ijodiy hamkorlik - ikki va undan ortiq, ijodkorning birligida ijodiy mehnati. Ijtimoiy hayotga munosabati, hayotiy tajribasi, maslak va matlabi, e'tiqodi, tili, estetik g'oyalari, ijodiy uslubi yoki yo'nalishi birbiriga yaqin ijodkorlar muayyan ilmiy-ijodiy faoliyatni birligida olib borishi mumkin. Demak talabalarning ijodiy hamkorligi hayotiy tajribalari, ilmiy qiziqishlari, sohasi va ijodiy uslubi yaqin bo'lishi asosidagi birligida ijodiy mehnatini anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijodiy hamkorlikni tashkil etish, ijodkor shaxsni tarbiyalashni Sh.S.Sharipov psixofiziologik jihatdan bir necha bosqichda amalga oshishini mumkinligini tadqiq etadi. Bulardan birinchisi havas – ehtiyojlarning eng sodda shakli bo'lib, inson tomonidan ongli boshqariladi. Ikkinchisi, nisbatan yuqoriroq rivojlanish bosqichi bo'lgan xohish ham inson tomonidan ongli boshqarilib, u shaxsning ma'lum buyum yoki hodisaga nisbatan munosabatlari majmuasini ifodalaydi. Uchinchi, eng murakkab bosqich bo'lgan qiziqish – xohish va u bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar asosida yuzaga keladi. Qiziqish hayotdagi tashqi ta'sirlar, shaxs faoliyatni hamda ta'lim-tarbiya jarayoni ta'sirida shakllanib boradi. Bu holatlar psixologik omillar – diqqat, idrok, tushuncha, xotira, fikrlash, tasavvur, sezgi va iroda hislatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, shaxsning shakllanishida alohida muhim ahamiyat kasb etadi[4;38-b].

Ijodiy hamkorlik tushanchasini pedagogik jihatdan tahlil etib, uni yuzaga chiqarish va rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda "pedagog kadrlarning ijodiy hamkorligining samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli askpektlarda ko'rib chiqish lozimligini" [5;10-11-b] A.Aripdjanova o'z tadqiqotlarida aniqlagan.

Yana bir olim Sh.Pozilova esa tadqiqot ishida ijodiy hamkorlik deganda "shaxslararonostandart fikrlashi natijasida yangi, original faoliyatni yaratishga qaratilgan faoliyati" [6;22-23-b] degan xulosani beradi.

Ijodiy hamkorlikni psixologik nuqtai nazzardan "insonning ijodiy imkoniyatlarini namoyon bo'lishi (fikrlash, xis-tuyg'ular, muloqot, shaxsiy faoliyat) sifatida qaraladi va umumiyy holda uning alohida jihatlarini, faoliyat mahsulotlarini, ularni yaratish jarayonini tavsiflaydi" [7;92-b] deya ta'rif beriladi.

Pedagog olma Z.T.Nishanova o'zining doktorlik dissertatsiyasida ijodiylik va ijodiy hamkorlikni tahlil qilib, ijodiy hamkorlikni ijodiy fikrlashga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlaydi va ijodiy fikrlashning modelini yaratadi. U "ijodiy fikrlashni tushuncha, tasavvur, bilim, ko'nikma, fikr, motivasiya va e'tiqodga asoslangan holda yaratish lozimligini ta'kidlaydi" [8;97-98-b]. Uning ijodiy fikrlash negiziga tasavvurni belgilashi ham beziz emas, negaki fikr, g'oya, amalga oshirilayotgan bir ish-harakat, voqelik, avvalo, shaxs tasavvurida paydo bo'lib, tushunchalarni anglash, bilim, ko'nikmalarni egallah va vaziyatga nisbatan motivatsiyaning uyg'onishi natijasida, insonda ijodiy fikrlash va u asosida ijodiy hamkorlik yuzaga keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ishtirokchilar. Tajriba sinov ishlarida Qarshi davlat universiteti xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabalarining 209 nafari respondent sifatida qatnashdi. Tadqiqotning samaradorligini obyektiv baholash maqsadida nazorat guruhi uchun ham respondentlar tasodifiy tanlash yo'l bilan jalb etildi.

Ma'lumotlar yig'ish. Ma'lumotlar anketa so'rovnomalari orqali to'plangan. Anketa so'rovnomalari respondentlarining ijodiy hamkorlik bilan bog'liq tajribalari, jumladan, guruhlarda olib boriladigan suhbat, o'yin, ijodiy mashqlar davomida guruhga moslasha olish, o'z fikrini isbotlay olish va shu bilan bir qatorda boshqa ishtirokchilar fikrlariga obyektiv munosabat bildira olish, tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlarini shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratildi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish. Tadqiqot ishi davomida olingan materiallarning reprezentativligini ta'minlovchi quyidagi asosiy usullardan foydalanildi:

- nazariy tadqiqot usullari (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, induksiya, deduksiya va boshq).

- empirik tadqiqot usullari (kuzatish, suhbat, anketa, ekspert baholash, faoliyat natijalarini o'rganish, intervyu, pedagogik eksperiment va boshqalar).

- materialarga matematik va statistik ishllov berish usullari.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida talabalarda bit-dars texnologiyasi asosida ijodiy hamkorlikni rivojlantirish darajasini aniqlashda jadvalda aks etgan muayyan mezonlarga tayanildi

Ushbu mezonlar asosida respondent oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini bit-dars texnologiyasi asosida rivojlantirishga qaratilgan jarayon samaradorligini bir necha darajalar bo'yicha baholash kvalimetrik jihatdan to'g'ri deb topildi hamda samaradorlik ko'rsatkichlari "yuqori", "o'rta", "past" darajalar bo'yicha baholandi.

1-Jadval

Talabalarning ijodiy hamkorlik samaradorligi ko'rsatkichlari (oraliq bosqich)

№	Mezon ko'rsatkichlari	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi		
		Yuq ori	O'rta	Quyi	Yuq ori	O'rta	Quyi
1	Guruh loyiha ishlarida g'oyalar yaratish va muammolarni yechishga qo'shilgan hissa.	37	52	15	32	50	23
2	Hamkorlikda ishlay olish, samarali muloqot qilish va faol kommunikatsiya ko'nikmasi.	55	43	6	30	59	16
3	Guruh muhitiga moslashuvchanlik qobiliyati.	42	49	13	31	60	14
4	Guruh vazifalarida tashabbuskorlik va rahbarlik qobiliyatları.	51	44	9	30	58	17
5	Guruh loyihalarida ishonch va javobgarlik darjası.	46	45	13	34	59	12
6	Guruh dinamikasiga qo'shilgan hissa.	52	40	12	30	62	13
7	Muammolarni hal qilishda tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyati.	41	50	13	31	59	15
8	Boshqalar fikrlariga qiziqib, ulaming fikrlarini hisobga olish.	47	38	19	39	46	20
9	Boshqalarni faol ishtirok etishga ruhlantira olish, motivatsiya bera olish qobiliyati.	51	47	6	31	63	11
10	Kreativ va innovatsion g'oyalar berish, fikrlarni kreativ va innovatsion usullarda ifoda eta olish.	52	44	8	32	59	14
	Hammasi:	474	452	114	320	575	155
	%	46%	43%	11%	30%	55%	15%

Yugoridagi jadvalda ko'rsatilgan raqamli ko'rsatkichlar asosida matematik-statistik hisoblash ishlari amalga oshirilib, tajriba va nazorat guruqlariga tegishli sifat ko'rsatkichlari tajriba guruhidagi

TILSHUNOSLIK

78,2 % va nazorat guruhida 71,9% tashkil etgani qayd etildi. Demak, tajriba guruhiga tegishli natija nazorat guruhiga nisbatan 6,3%ga o'sganini tajriba-sinov ishlarning oraliq bosqichda ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini bit-dars texnologiyasi orqali ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish samarali natija ko'rsatishi tajriba sinov ishining oraliq bosqichida tasdiqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B.452.
2. Exsonova F.T. Boshlang'ich sinf oquvchilarida kreativlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. – Namangan.: NamDU, 2020. –B. 5
3. <https://uza.uz/uz/posts/kreativlik-va-uning-dars-zharayonidagi-samaralari> (Kreativlik va uning dars jarayonidagi samaralari)
4. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyilgini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan.dok.diss. – Toshkent: TDPU, 2012.- B.38.
5. Aripjanova A.R.Ta'llimni axborotlashtirish sharoitida olly ta'llim muassasalarini pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish // ped. Fanlari bo'yicha fal.dokt.(PhD) diss.avtoref. T.:TDPU, 2017. – 50 b
6. Pozilova Sh.X. Oly ta'llim muassasalarini tinglovchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi: ped. yo'na. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – T.: 2019. – B. 22-23
7. Большой психологический словарь. – М.: Прайл-ЕВРОЗНАК. Под ред. Б.Г.Мещерякова, акад.В.П.Зинченко, 2003. – 92 с.
8. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari: psix.fan. doktori ...diss. T.: 2005. – B. 97-98.